



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 30-апрель, № 87 (8982)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



SPORT SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI YANADA KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-aprel kuni Butunjahon suzish federatsiyasi rahbari, Osiyo Olimpiya kengashi bosh direktori Husayn al-Musallam va Milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti Shayx Jav'an bin Hamad Ol Soniyini qabul qildi.



Sport sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, olimpiya harakatini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda professional va ommaviy sportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Shayx Jav'an bin Hamad Ol Soniy O'zbekiston yetakchisiga Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Ushbu xalqaro sport tashkilotlari bilan amaliy

hamkorlik yuksak darajaga ko'tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Butunjahon suzish federatsiyasi bilan sheriklikni mustahkamlash, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish, shuningdek,

O'zbekistonda suv sporti turlari uchun zamonaviy va hammabop infratuzilma yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda yirik xalqaro musobaqalar, Osiyo

Olimpiya kengashi Assambleyasi yig'ilishi va Olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasining yirik tadbirlarini o'tkazish masalalari ham muhokama qilindi. O'ZA. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

IJTIMOY HIMOYANI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR TAQDIMOTI

Davlat rahbariga kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va turlarini kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha axborot berildi.

Mamlakatimizda ehtiyojmand insonlar alohida e'tiborga olinib, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida bunday oilalarga bandlek, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda ko'maklashilmoqda.

Shu bilan birga, bu juda keng va uzluksiz jarayon bo'lib, doimiy takomillashtirishni taqozo etadi. Jumladan, kambag'al oilalarni ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab, uch toifada qo'llab-quvvatlash taklif qilinmoqda.

Kam ta'minlangan oilalarga 100 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmat, yordam va imtiyozlar taqdim etiladi. "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritish tartib-taomillari qonunchilik hujjati darajasida belgilanadi. Ularni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual rejalar tasdiqlanib, manzilli xizmat va yordamlar ko'rsatiladi. Bunday insonlar bandligini cheklovchi omillar bartaraf etilib, muayyan daromad topishiga sharoit yaratiladi.



KADASTR TIZIMIDAGI USTUVOR VAZIFALAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yer hisobini yuritish va kadastr xizmatini rivojlantirish bo'yicha qilingan ishlar hamda kelgusidagi vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 45 million gektarga yaqin yer maydoni bor. 2021-yilgacha shundan bor-yo'g'i 1 million gektar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan edi. So'nggi yillarda yagona tizim yaratilib, raqamlashtirish joriy etilgan natijasida 42 million gektar yer, ya'ni jami maydonlarning 94 foizi ro'yxatdan o'tkazildi.

Jumladan, o'rmon va suv fondi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'liq davlat ro'yxatiga olindi. Transport, aloqa, geodeziya, energetika, yo'l kabi 13 turdagi davlat kadastr bo'yicha ma'lumotlar 100 foiz

shakllandi. Yana 7 ta yo'nalish bo'yicha ishlar yakuniy bosqichda.

Sohadagi eng dolzarb masala — ko'chmas mulk munosabatlarini tartibga solishdir. Shu maqsadda ko'chmas mulklarining haqiqiyliги va ishonchligini davlat tomonidan kafolatlanadigan yagona ma'lumotlar bazasi — UZKAD tizimi ishga tushirilgan. Barcha bino va inshootlar xatlovdan o'tkazilib, unga kiritilmoqda. Hozirgacha 150 mingta turar va 707 mingta noturajoy, 44 mingta ko'p qavatli uy haqidagi ma'lumotlar ushbu yangi tizimda aks ettirilgan.



"MOTURIDIYLIK — BAG'RIKENGLIK, MO'TADILLIK VA MA'RIFAT TA'LIMOTI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman qatnashchilari, muhtaram mehmonlar!

Avvalo, siz, azizlarni ilm-ma'rifat va taraqqiyotga ulkan hissa qo'shgan O'zbekiston zaminida, uning eng qadimiy shaharlaridan biri — azim Samarqandda buyuk alloma Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Jonajon Vatanimizga, ulug' alloma va mutafakkirlar yurti bo'lgan go'zal Samarqand shahriga xush kelibsiz!

"Kalom ilmining sultoni", "Musulmonlar e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lgan Imom Moturidiy o'rta asrlarda — g'oyaviy kurashlar avj olgan o'ta murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng ochib beradigan noyob ilmiy-ma'rifiy asarlar yaratgani, turli zararli oqimlar va jaholatga qarshi mardona kurash olib borgan, hech shubhasiz, chinakam ma'naviy jasorat namunasidir.

Buyuk vatandoshimiz asos solgan moturidiylik maktabi va ta'limoti esa e'tiqod borasida asrlar davomida bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat timsoli bo'lib kelayotgani tahsinga sazovordir.

Bu o'lmas ta'limot muqaddas

dinimizning ezgu g'oyalari soxtalashtirish, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanishga qaratilgan buzg'unchi harakatlar yangi shakllarda davom etayotgan bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyatga ega bo'lib borayotganini, siz, hurmatli anjuman ishtirokchilari albatta yaxshi tushunasiz va biz buni yuksak qadrlaymiz.

Muhtaram do'stlar!

Yangi O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan allomalarning ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalarning nomlari bilan ataladigan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida ushbu ilmiy markazlar tomonidan Qur'oni karim va boshqa muqaddas diniy manbalarning xorijiy fondlarda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalari topilib, ularning nusxalari yurtimizga olib kelingan, ilm va ma'rifat rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' zotlarning

ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu sohada olib borilayotgan ishlar ko'lamidan dalolat beradi. Jumladan, Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-tavhid" kitoblari ilk marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, keng jamoatchilik e'tiboriga havola etilganini ta'kidlash lozim.

Biz xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalari, sizlar kabi musulmon olamlamda katta nufuzga ega bo'lgan olimlar bilan hamkorlikda Imom Moturidiyning serqirra hayot yo'li va ilmiy merosi, ushbu ta'limotning bugungi kundagi ahamiyatini yanada chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Shu maqsadda Imom Moturidiyning 1155-yillik tavallud sanasini keng nishonlash haqida qaror qabul qilib, bu yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar, jumladan, ulug' mutafakkir bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini kengaytirib, yanada obod ziyoratgohga aylantirish bo'yicha vazifalarni aniq belgilab oldik.

Ma'lumki, 2020-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiya ishtirokchilarining taklifi asosida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan edi.

Bugungi kunda buyuk ajdodimiz

qoldirgan boy ilmiy-ma'rifiy merosning ahamiyati jahon miqosida tobora ortib borayotganini inobatga olib hamda ushbu Markazning maqomi va nufuzini yanada oshirish maqsadida, yaqinda imzolangan Farmonga muvofiq Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Vazirlar Mahkamasi huzurida qayta tashkil etilganini alohida qayd etmoqchiman.

Ushbu markaz Imom Moturidiy hazratlarining islom dini nazariyasiga qo'shgan bebaho hissasi va moturidiylik ta'limotini chuqur tadqiq etishda dunyoning turli mamlakatlaridagi olim va ulamolarni birlashtiradigan xalqaro platforma bo'lib xizmat qiladi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, o'z hayotini ana shunday ezgu ishga bag'ishlab kelayotgan siz, azizlarga Imom Moturidiy va O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan boshqa ulug' allomalarning boy ilmiy-diniy merosini o'rganish yo'lidagi mashaqqatli mehnatingiz, izlanish va tadqiqotlaringiz uchun samimiy minnatdorlik bildirib, barchangizga sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizda yangi yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi to'g'risida A X B O R O T

2025-yilning 29-aprel kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Yalpi majlis Senatning "YouTube"

tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning oltinchi yalpi majlisining birinchi kunida dastlab "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni xalqaro standartlarga mos keluvchi bank

qonunchiligini yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarning yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakatimiz bank tizimini isloh qilishning yangi bosqichi boshlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON HUQUQ VA MANFAATLARINING QONUNYI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor etish tartib-taomillarini hamda to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, xususiy sektor uchun belgilangan ijtimoiy majburiyatlarni erkinlashtirish, intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Teng sharoit va raqobat muhiti ta'minlanadi

Majlisda deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan dastlabki hujjat — litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor etish tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Bu bilan tadbirkorlik subyektlarining 12 turdagi litsenziya, ruxsat berish va xabarnoma olish talabi bekor bo'lishi, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor etish tartib-taomillaridan o'tish bo'yicha arizalarni Davlat xizmatlari markazlari orqali ham taqdim etish imkoniyatini yaratish belgilanmoqda.

Loyihada bu boradagi islohotlar aks ettirilib, u bilan amaldagi 3 ta kodeks, 5 ta qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilyapti.

Deputatlarining aytishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor etish tartib-taomillarini yanada soddalashtirishga, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bozorni teng sharoitlar va raqobat muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.



IJTIMOY HIMOYANI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR TAQDIMOTI

Ehtiyojmand oila farzandlari maktabdagi uzaytirilgan kun guruhlariga uchun to'lovdan ozod qilinishi, a'lo bahoga o'qiganlar oromgohlarda bepul dam olishi mumkin bo'ladi. Kambag'al oiladan chiqqan a'lochilarga talaba-qizlarga bazaviy stipendiyaning 2 baravari miqdorida maxsus stipendiya to'lanadi.

Taqdimotda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash choralari haqida ham axborot berildi.

Unga ko'ra nogironligi bor insonlarni ishga olgan yengil sanoat korxonalariga soliq imtiyozlari berish, bunday xodimlar uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish, tadbirkorlarga ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi hisobidan 500 million so'mgacha subsidiya ajratish kabi rag'batlar ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, elektron savdo maydonchasi orqali nogironligi bor shaxslarga tegishli tovar va xizmatlarni xarid qilish miqdori oshiriladi. Ularga kasb-hunar o'rgatish uchun texnikumlarda inklyuziv ta'lim guruhlarini tashkil etiladi.

O'zgarlar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar qamrovi va turlarini kengaytirish maqsadida "Faol hayotga qadam" dasturi joriy etiladi. Dastur doirasida ular uchun kunduzgi qatnov asosida yoki uyda qarab turish, maishiy yumushlarda ko'maklashish, yo'qotilgan harakat faolligini qayta tiklash, kasalliklarning oldini olish kabi tibbiy-ijtimoiy xizmatlar yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, ularni tizimli yo'lga qo'yish va bajarilishini nazorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

KADASTR TIZIMIDAGI USTUVOR VAZIFALAR KO'RIB CHIQILDI

Yaqin-yaqingacha o'z uyiga mulk huquqi bo'lmagan uchun millionlab fuqarolar qiynalib kelardi. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi "O'z boshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonuni bilan joriy yil yanvardan hujjatlarni rasmiylashtirib, egalarga taqdim etish boshlandi.

Taqdimotda galdagi rejalar va ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, bu yil 400 mingta yakka tartibdagi uy UZKAD tizimiga kiritiladi. Natijada mol-mulki sotish, ijaraga berish, meros qoldirish, garovga qo'yish kabi jarayonlar osonlashadi. Kelgusida 6 million 300 mingdan ziyod barcha yakka tartibdagi uylar ushbu tizimda aks ettiriladi.

Ko'p joylarda ko'chmas mulkning kadastr qiymati bilan haqiqiy bozor bahosi o'rtasida katta farq bor. Bu huquqiy munosabatlarda va savdolarida nomutanosiblikni keltirib chiqaryapti.

Shu bois O'zbekiston Prezidentining 5-martdagi Farmoniga muvofiq ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimi joriy etilmoqda. Buning uchun Kadastr agentligida Ko'chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi ochildi. Unga 40 milliard so'm ajratilib, malakali mutaxassislar jalb qilindi va amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Ommaviy baholash bu yil Toshkent shahrida boshlanib, keyingi yillarda Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda qolgan hududlarda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari kadastr ma'lumotlari iqtisodiy rejalarini samarali belgilash uchun muhim asos ekanini ta'kidlab, bu sohada yaxlitlik va aniqlikni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Byurokratiyani keskin kamaytirib, kadastr xizmatlari sifatini oshirish, tadbirkorlarga yengilliklar yaratish vazifasi qo'yildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT



Banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq xalqaro standartlar asosida olib boriladigan nazorat choralarga qaramasdan banklarning moliyaviy inqirozga uchrash ehtimoli yo'q emas.

Amaldagi qonunchilikda banklarni sanatsiya qilish mexanizmi mavjud bo'lmagan, to'lovga qobiliyatsiz banklar "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun asosida majburiy tugahtib kelinmoqda. Ammo yirik banklar to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganida ularni majburiy tugahtish bank tizimi inqirozini keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakatimizda banklarni sanatsiya qilish mexanizmining mavjud emasligi mazkur sohada huquqiy asoslar shakllantirilishini taqozo etmoqda.

Ushbu qonun bilan banklarni sanatsiya qilish bo'yicha vakolatli davlat organi, sanatsiya qilishning maqsadlari va prinsiplari, sanatsiya qilishni boshlash uchun asoslar, sanatsiya qilishni moliyalashtirish mexanizmlari, shuningdek, banklarni ixtiyoriy va majburiy tugahtish tartibi belgilanmoqda.

Qonunning qabul qilinishi bankda to'lovga qobiliyatsizlik holati vujudga kelganda nobarqarorlik ustidan tezkorlik bilan nazorat o'rnatish va to'lovga qobiliyatsiz bankingni bank tizimi va iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirishga, banking o'ta muhim vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta'minlashga, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga, mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi oshirishga, shuningdek, mamlakatimizda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Keyin majlisda "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda iqlim o'zgarishining oldini olish, uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq bugungi kunda "Issiqxona gazlari" chiqarilishini tartibga soluvchi qonun va normativ baza yaratilmaganligi respublikada "Issiqxona gazlari"ning chiqarilishini kamaytirishda iqtisodiy, texnologik va ekologik yo'nalishtirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Bu esa, o'z navbatida, sohani xalqaro hujjatlar talablari darajasiga yetkazish, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Qonunda "Issiqxona gazlari" chiqarilishini kamaytirish natijasida hosil bo'ladigan uglerod

birliklari muomalasini amalga oshirishning tartibini belgilash hamda "Issiqxona gazlari" chiqarilishining tizimli nazoratini ta'minlashga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, "Issiqxona gazlari"ning chiqarilishini cheklashning asosiy prinsiplari, uning monitoringi, hisoboti va verifikatsiya tizimi asoslari, tartibi, qisqartirilgan "Issiqxona gazlari"ga egalik qilish huquqlari belgilanmoqda.

Senatorlar tomonidan qonunning qabul qilinishi Parij bitimiga asosan "Issiqxona gazlari" chiqarilishini qisqartirish bo'yicha olingan majburiyatlar O'zbekiston tomonidan bajarilishini ta'minlashga, mamlakatimizda iqlim o'zgarishi bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirishga, atrof-muhit va ekologiyani yaxshilash hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shuningdek, O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan iqlim o'zgarishi va "Issiqxona gazlari"ni qisqartirish sohasida ikki tomonlama hamkorlik loyihalarini samarali amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Muhokama yakunida ushbu qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, Senatning yalpi majlisida "Davlat mudofaa buyurtmasi to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, qonun mamlakatimizda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish, favqulodda holat rejimini saqlab turish, shuningdek, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan davlat mudofaa buyurtmalariga oid munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Qonunda mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqqan holda davlat mudofaa buyurtmasini shakllantirish, tasdiqlash va bajarish, shuningdek, davlat mudofaa buyurtmasi uchun ajratilgan moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash davlat mudofaa buyurtmasining asosiy vazifalari etib belgilanmoqda.

Bundan tashqari, mazkur hujjatda davlat mudofaa buyurtmasi sohasidagi davlat boshqaruvi tartibga solinmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining, Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligining, vakolatli davlat organining, shuningdek, buyurtmachilarning sohadagi vakolatlari aniq belgilab qo'yilmoqda. Bunda Vazirlar Mahkamasi davlat mudofaa buyurtmasi sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, davlat mudofaa buyurtmasini shakllantirish,

kelishish va bajarish tartibini tasdiqlash mustahkamlab qo'yilmoqda.

Shuningdek, qonunda Davlat mudofaa buyurtmasini shakllantirish va kelishish tartibga solinmoqda. Jumladan, navbatdagi yil uchun zarur bo'lgan harbiy va ikki xil maqsadga mo'ljallangan mahsulotlar uchun buyurtmachilar tomonidan tayyorlangan buyurtmanomalar moliyalashtirish masalalari bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilganidan keyin vakolatli davlat organiga har yili 1-iyulga qadar yuborilishi belgilanmoqda.

Mazkur qonunda Davlat mudofaa buyurtmasini maxsus vakolatli komissiya tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi ko'rsatilib, Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan davlat mudofaa buyurtmasi navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqishda inobatga olinishi belgilanmoqda.

Senatorlar qayd etganidek, qonunning qabul qilinishi davlat mudofaa buyurtmalarini shakllantirish, kelishish, tasdiqlash va bajarishga oid munosabatlarni tartibga solishning yagona huquqiy mexanizmi yaratilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, hujjat mudofaa va xavfsizlik borasidagi ehtiyojlarni samarali tahlil qilish, ta'minlanishi lozim bo'lgan mahsulotlar orasidan ustuvorlarini belgilash hamda Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni mutanosib ravishda shakllantirishga ko'maklashadi.

Muhokamadan so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, aholini qabaki mahsulotlardan himoya qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim turdagi yig'irlarni belgilash, ularni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibini belgilash, tadbirkorlik subyektlarini va kasaba uyushmalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vaqtinchalik soliq imtiyozlarini berish zarurati ham yuzaga kelmoqda.

Senatning yalpi majlisida ham shu kabi imtiyozlarni o'z ichiga olgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Jumladan, mazkur qonun bilan Soliq kodeksi parrandachilik sohasini rivojlantirish, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga hamda raqamli markirovkalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, raqamli markirovkali mahsulotlarning chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i yoki aylanmadan olinadigan soliq yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalarini tadbirkorlik subyektlari uchun markirovkani o'qish qurilmalarini sotib olish bilan bog'liq xarajatlari summasiga, biroq bitta qurilma uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirish huquqi 2027-yil 1-yanvargacha davr bo'lgan davr uchun beriladi.

Shuningdek, qonun bilan 2030-yil 1-yanvargacha qadar parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini (ekin maydonlaridan tashqari) to'lashdan ozod etish belgilanmoqda.

Shu bilan birga, pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imni hamda tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imni hisoblash va to'lash tartibi aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda. Bunda pivo va pivo ichimliklari bilan chakana savdo qilish vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritilmoqda.

Senatorlar tomonidan qonun parrandachilik korxonalarini faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga, bolalarni sog'lomlashtirish va aqil rivojlantirish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga hamda raqamli markirovkalash orqali aholini qabaki mahsulotlardan himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Muhokamadan so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning oltinchi yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini iro etish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Senatorlar tomonidan ushbu qonunni qabul qilish zaruratiga alohida ahamiyat qaratildi. Xususan, bu iro hujjatlarini elektron tarzda shakllantirish, ular bo'yicha pul mablag'larini avtomatlashtirilgan tarzda taqsimlash va undiruvchiga davlat ijrochisining aralashuvizis o'tkazish imkonining mavjud emasligi, fuqarolardan qarzdorlik uchun undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan eng kam kafolatlangan daromad miqdorining belgilanmaganligi, davlat ijrochilarida iro harakatlarini amalga oshirishda mobil videokuzatuv vositalaridan foydalanish huquqining mavjud emasligi, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini iro etish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun mansabdor shaxslarga belgilangan ma'muriy jazolarning sodir etilgan qilmishga mutanosib emasligi bilan izohlanadi.

Muhokama jarayonida shu kabi masalalarni tartibga solishga qaratilgan mazkur qonun senatorlar tomonidan ijobiy baholandi. Qonunda undiruvchi jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va undiruvchi yuridik shaxsning soliq to'lovchi identifikatsiya raqamini iro hujjatida ko'rsatish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, mazkur hujjatda qarzdor jismoniy shaxslarning banklardagi yoki boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqalarida hamda omonatlarida turgan yoki saqlashga qo'yilgan pul mablag'lariga undiruv qaratilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari miqdorini aniqlashda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining yarmi miqdoridagi pul mablag'lari hisobga olinib, ularga nisbatan undiruv qaratilmasligi mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, davlat ijrochisining iro harakatlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq mobil videokuzatuv vositalaridan foydalanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Qonun bilan Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslariga hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini iro etish bilan bog'liq qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Qonunning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 1982-moddasida ayrim turdagi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini iro etish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun nazarda tutilgan jarimalar miqdorlari oshirilmoqda.

Senatorlar tomonidan ushbu qonun fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini shonchli himoya qilishga, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini iro etishda inson omilini kamaytirishga, majburiy iro etish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining
Axborot xizmati.

Munosabat

SANATSIYA – BANKLARNI SOG'LOMLASHTIRISHNING MUHIM OMILI

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar
qo'mitasi raisi:

So'nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida "Banklarni sanatsiya qilish va tugahtish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ishlab chiqilgan bo'lib, unda banklarni sanatsiya qilish hamda tugahtish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, banklarning iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta'minlash, omonatchilar hamda kreditorlar manfaatlarini himoyalash va bu orqali bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda sanatsiya vositalaridan samarali foydalanishga doir huquqiy asoslar joriy etilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, 2007-2008-yillarda ro'y bergan jahon moliyaviy inqirozi ilg'or

xorijiy tajriba, xususan, Bazal qo'mitasi tavsiyalari asosida olib boriladigan nazorat choralari qaramasdan banklarning moliyaviy inqirozga uchrash ehtimoli yo'q emasligini hamda sanatsiya qilish tartibini joriy etish zarurligini ko'rsatdi.

Amaldagi qonunchilikda banklarni sanatsiya qilish mexanizmi mavjud bo'lmagan, to'lovga qobiliyatsiz banklar "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun asosida litsenziyasi chiqirib olingan holda majburiy tugahtib kelinmoqda.

Banklarni sanatsiya qilish tizimi to'lovga layoqatsiz banklarni iqtisodiyot va bank tizimiga salbiy ta'sirini kamaytirish, ularning o'ta muhim vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoyalash hamda mijozlarning bank tizimiga ishonchini oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mazkur qonun ilg'or xorijiy tajriba va umume'tirof etilgan xalqaro standartlar

asosida Jahon banki ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan. Unda Markaziy bankni banklarni sanatsiya qilish bo'yicha vakolatli davlat organi etib belgilash va unga sanatsiya qilish bo'yicha vakolatlarni berish, banklarni sanatsiyalashning aniq maqsadlari, sanatsiya qilishda aktivlar va majburiyatlarni o'tkazish, oraliq bank tashkil etish hamda hisobdan chiqarish va (yoki) konvertatsiya vositalaridan foydalanish hamda sanatsiyani moliyalashtirish maqsadida sanatsiya qilish jamg'armasini tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro amaliyot va umume'tirof etilgan tamoyillardan kelib chiqqan holda banklarni ixtiyoriy va majburiy tugahtish tartibi belgilanmoqda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida bankda to'lovga qobiliyatsizlik holati vujudga kelganda nobarqarorlik ustidan tezkor nazorat o'rnatiladi, bankingni o'ta muhim vazifa va xizmatlari uzluksizligi ta'minlanadi. Omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoyalash, to'lovga qobiliyatsiz bankingni tizim va iqtisodiyotga salbiy ta'sirini bartaraf etish yoki kamaytirishga erishiladi.

DAVLAT MUDOFAA BUYURTMASI MAMLAKAT HARBIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ASOSIY SHARTIDIR

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalar
qo'mitasi raisi:

Bugungi kunda har bir mamlakatning milliy xavfsizligi va mudofaasi mustahkam bo'lishi zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Davlatning harbiy va xavfsizlik sohasidagi ehtiyojlarini ta'minlashda esa davlat mudofaa buyurtmasi muhim ahamiyatga ega.

Davlat mudofaa buyurtmasi, birinchi navbatda, mamlakatning harbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu buyurtmalar harbiy texnikani, qurol-yarog'larni, ma'lumotlarning xavfsizligini va harbiy o'quv jarayonlarini rivojlantirishga olib keladi.

Mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqqan holda davlat

mudofaa buyurtmasini shakllantirish, tasdiqlash va bajarish, shuningdek, davlat mudofaa buyurtmasi uchun ajratilgan moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash davlat mudofaa buyurtmasining asosiy vazifalaridandir.

Shu bois 2023-yil 31-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qurollantirish va mudofaa sanoati sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligi tomonidan "Davlat mudofaa buyurtmasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqildi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi.

INSON HUQUQ VA MANFAATLARINING QONUNIY KAFOLATI



O'zLiDeP taklif etgan qonun loyihasi qabul qilinmadi

Majlisda O'zLiDeP fraksiyasining bir guruhi a'zolari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga xususiy sektor uchun belgilangan ijtimoiy majburiyatlarini erkinlashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

U yuzasidan **Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi Abdumannov Bo'riyev** ma'ruza qildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va rasmiy mehnat bozorini kengaytirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mehnat qonunchiligida xususiy sektor uchun ijtimoiy majburiyatlar ko'pligi, sohadagi huquqiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Deputatlar tashabbusi bilan ishlab chiqilgan qonun loyihasida Mehnat kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda:

- mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilishda arizani chaqirib olish jarayonida ish beruvchining ishtirokini ta'minlash orqali tomonlarning mas'uliyatini oshirish;
- mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusiga ko'ra bekor qilishda kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki mahalliy mehnat organi bilan kelishish jarayonlarini soddalashtirish orqali xabardor etish tartibiga o'tkazish;
- xodimning uzoq muddat mehnatga qobiliyatsiz bo'lishi natijasida mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini takomillashtirish;
- tadbirkorlik subyektlarida o'ringoslik asosida faoliyat yuritayotgan xodim bilan mehnat shartnomasi tugatilganda ogohlantirish muddati va kompensatsiya to'lovlarini bekor qilish belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, **O'zXDP fraksiyasi a'zosi Firdavs Sharipov** Mehnat kodeksining 164-moddasiga taklif etilayotgan o'zgartirishga e'tibor qaratdi. Loyihaga ko'ra endilikda tadbirkorlar tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi rozligini olish emas, balki uni xabardor qilish tartibi kiritilayotgani, bu esa xodimlarning huquq va manfaatlariga qay darajada mos kelayotgani bilan qiziqdi. Xodimlarni har tomonlama kuchli ijtimoiy himoyalash masalasi O'zXDPning ustuvor vazifalaridan ekanini qayd etgan holda ushbu qonun loyihasi bo'yicha fraksiya pozitsiyasini ma'lum qilib, unga qarshi ovoz berilishini ta'kidladi.

Ma'ruzachi bu bo'yicha tushuntirish berar ekan, ushbu o'zgartirishdan ko'zlanayotgan maqsad kichik biznes subyektlari bo'lgan ish beruvchilar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishda ayrim byurokratik to'siqlar olib tashlanayotganini bildirdi.

O'zXDP fraksiyasining yana bir a'zosi Shokirjon Ahmedov qonun loyihasida kasaba uyushmasining roli va ta'siri sezilmayotganini, shu nuqtaiy nazardan, loyihaning fraksiyaga qaytarib, tegishli idoralar bilan birgalikda uni qaytadan ko'rib chiqish lozim, degan taklifni ilgari surdi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Behzod To'xtamurodov mazkur qonun loyihasi kuni kecha bo'lib o'tgan fraksiya yig'ilishida batafsil ko'rib chiqilganini, unda belgilanayotgan normalar ko'proq ish beruvchi, ya'ni tadbirkorga yon

bosilayotgandek ko'rinayotganini bildirdi. Ya'ni loyiha bilan tadbirkorlik subyektlariga yuklatilgan asosiy ijtimoiy majburiyatlardan biri bo'lgan o'ringoslikni mehnat shartnomasi to'xtatilganiga qadar yozma shaklda ogohlantirish yoki mutanosib miqdorda pulli kompensatsiya to'lash bilan bog'liq bir qator majburiyatlar bekor qilinmoqda. Deputat bunda xodimning ijtimoiy himoyasi masalasi ochiq qolayotganiga e'tiroz bildirdi.

Qonun tashabbuskorlaridan biri, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Shuhrat Sharafutdinov bildirilayotgan xavotirlar asossiz ekanini, "tadbirkorlikni rivojlantirish strategik vazifa" g'oyasi qonun loyihasida asos qilib olinganini qayd etib, bu bo'yicha atroflicha tushuntirish berib o'tdi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Shuhrat Yakubov Mehnat kodeksining 168-moddasidagi mehnat shartnomasini tarafdinlar xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarda bekor qilish masalasiga e'tibor qaratdi. Uning fikricha, amaldagi kodeksga ko'ra, tibbiy xulosaga muvofiq mehnat faoliyatiga to'liq qobiliyatsiz, deb e'tirof etilgandagina mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin. Qonun tashabbuskorlari tomonidan kiritilayotgan norma ko'ra, qonun hujjatlarida uzoqroq muddat belgilanmagan bo'lsa, olti oydan ortiq uzluksiz to'liq mehnatga layoqatsizligi ham xodimni ishdan bo'shatishga sabab bo'ladi. Bu ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlarning noroziligiga hamda ihsizlar sonining yanada ortishiga olib kelmaydiki, degan savolni o'taga tashladi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Javlon Abdullayev qonun loyihasidagi ayrim normalar xodimlar huquqlarining cheklanishiga olib kelishini aytib o'tdi. Misol uchun, Mehnat kodeksining 160-moddasiga kiritilayotgan o'zgartirishga ko'ra, endilikda mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilishda xodim o'zi bergan arizani faqatgina ish beruvchining rozligi bilan qaytarib olish normasi kiritilmoqda. Deputat bu norma erdaga amaliyotda qanday ishlaydi, degan savolni berdi.

Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan masalalar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berib o'tdi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi Shahnoza Joldasova kuni kecha fraksiya yig'ilishida qonun loyihasi jiddiy tanqidiy muhokama qilinganini, unda ko'tarilgan savollarga yetarlicha javob olinmaganini qayd etib, ushbu loyiha qo'llab-quvvatlamaslik bo'yicha fraksiyaning qat'iy pozitsiyasini bildirdi. Bunga asos tariqasida qonun loyihasidagi yoshlar bilan bog'liq ayrim normalar keltirildi hamda ularning xodimlar huquq va manfaatlariga zidligi aytili.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi. Xususan, **O'zXDP fraksiyasi rahbari Ulug'bek Inoyatov** qonun loyihasining konseptsiyasi taqdim etilayotgan loyiha matniga muvofiq kelmasligini, xususan, qonunni qabul qilish zaruratida ko'rsatilgan davlat va xususiy sektorga yuklatilgan ijtimoiy majburiyatlarining nomutanosibligi va sifatida ko'rsatilib, faqatgina bir tomonlama – xususiy sektordagi ish beruvchilar manfaat ko'zlanganini qayd etdi. Qonun loyihasini ishlab chiqishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim jihatlarini inobatga olish zarurligi aytili. Ushbu qonun loyihasida bozor munosabatlari ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari to'liq mujassam topmayotganligi alohida ta'kidlangan holda, uni tashabbuskorlarga qaytarish taklifi ilgari surildi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov deputatlar tomonidan tashabbus qilingan qonun loyihasi yetarli va atroflicha muhokama etilganini aytib, kun tartibidagi masalani ovozga qo'yishni so'radi.

Majlisda qonun loyihasi yetarli ovoz ololmadi va tashabbuskorlarga qaytarildi.

Aktam HAITOV, O'zLiDeP fraksiyasi rahbari:

"Afsuski, fraksiyamiz a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasi yetarli ovoz ololmadi. Loyihada qulay biznes muhitini shakllantirish, tadbirkorlarni mehnat munosabatlari jihatidan ijtimoiy majburiyatini qisqartirish kabi muhim vazifalar mujassam edi. Qonun loyihasi qabul qilinganda, iqtisodiyotda norasmiy bandlik ulushini qisqartirishga erishilgan, bu esa ishchilarni samarali himoya etish mexanizmini yanada takomillashtirgan bo'lardi.

Ushbu hujjat qarshiliklarga uchragan bo'lishiga qaramay fraksiyamiz a'zolari buni yanada takomillashtirib, albatta, qabul qilish uchun bor kuchini sarflaydi".

To'lov tizimlari uchun yangi qoidalar

To'lov tizimi zamonaviy iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan birini tashkil etadi. Ular aholiga, korxonalariga va davlat organlariga mo'ljallangan pul o'tkazmalari, to'lovlar va moliyaviy xizmatlarni ta'minlaydi. Bu xizmatlar orasida bank kartalari, onlayn to'lovlar, mobil hamyonlar va pul o'tkazmalari xizmatlari alohida o'rin tutadi. To'lov tizimlari samarali ishlashini ta'minlashda esa to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari muhim ahamiyatga ega.

Majlisda to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlar va elektron to'lovlar tizimi jadal rivojlanayotgan bir paytda, bu sohada xavfsizlikni ta'minlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va huquqiy munosabatlarning shaffofligini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

U bilan to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini sohalarda, shuningdek, davlat tashkilotlarini xususiy lashtirishda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishning va ular huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlarini, to'lov terminali, virtual to'lov terminali, antifrod tizimi va ularning mazmun-mohiyati haqidagi tushunchalar qonunchilikda belgilanmoqda.

Shu bilan birga, litsenziyalash jarayonlarini yanada qisqartirish va banklarning to'lov xizmatlari bozorida faoliyatini rag'batlantirish maqsadida banklarning to'lov tizimi operatorlari sifatida faoliyatini boshlash uchun xabardor etish tartibi joriy qilinmoqda.

Loyiha bilan "muhim to'lov tashkilotlari" tushunchasi kiritilmoqda, ushbu toifadagi tashkilotlar tomonidan uzluksiz xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida ularning to'lov tizimi ishtirokchisi bo'lishi uchun huquqiy asos yaratilmoqda. Xususan, to'lov tizimlarining operatorlari moliyaviy infratuzilmda muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, to'lov operatsiyalarining samaradorligi va ishonchligini yanada kuchaytirish maqsadida ularning asosiy funksiyalari belgilanmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi orqali to'lov xizmatlari bozorida kuzatilayotgan moliyaviy firibgarliklar, majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi bilan bog'liq tavakkalchiliklarning kamaytirilishiga va to'lov xizmatlari iste'molchilari huquqlari buzilishining kamayishiga erishiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Intellektual mulk obyektlari – muhofazada

Majlisda intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda intellektual mulkni muhofaza qilish tizimini soddalashtirish, jumladan, talabnoma beruvchilarni intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish

jarayonida yuzaga keladigan ortiqcha byurokratik to'siqlardan xoli etish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay, intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq tartib-taomillarning soddalashtirilishi hamda yengillashtirilishiga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan esa sanoat mulki obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarida talab qilinadigan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni bekor qilish belgilanmoqda.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni va ma'lumotlar bazalarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun amalga oshiriladigan tekshiruv muddati aniq belgilanmagan. Qonun loyihasida esa elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni va ma'lumotlar bazalarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan talabnoma va unga ilova qilingan hujjatlar belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish muddatini 10 kun etib belgilash nazarda tutilyapti.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi muhofaza hujjatlarini yagona QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan holda elektron shaklda avtomatik tarzda berish taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, tovar kelib chiqqan joy nomini va (yoki) tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomada ifodalangan belgini ekspertizadan o'tkazish muddatini yetti oydan bir oyga qisqartirish, intellektual mulk obyektlari ro'yxatdan o'tkazishda davlat bojini to'lash uchun belgilangan uch oylik muddat o'tkazib yuborilganda, uni qo'shimcha to'lov evaziga (patent bojining 50 foizi) olti oygacha uzaytirish nazarda tutilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi qonunchilikdagi intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib-taomillarining soddalashtirilishiga, ortiqcha talablarning bartaraf etilishiga hamda qonunchilikdagi tushunchalarning tizimlashtirilishiga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlik yanada kengayadi

"Turkiy davlatlar tashkilotining Fuqaro muhofazasi mexanizmini tashkil etish to'g'risida" bitimni (Bishkek, 2024-yil 6-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan turli sohalardagi hamkorligi kengayib bormoqda. Shu sababli, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning favqulodda vaziyatlar idoralari o'rtasida ushbu sohada o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash muhim o'rin tutadi.

Mazkur bitim 2024-yil 6-noyabr kuni Qirg'iz Respublikasining Bishkek shahrida "Turkiy dunyoni kengaytirish: iqtisodiy integratsiya, barqaror rivojlanish, raqamli kelajak va barcha uchun xavfsizlik" shiori ostida o'tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashi yig'ilishi doirasida ishlab chiqildi.

Ratifikatsiya qilish taklif etilayotgan ushbu bitim muqaddima va 8 moddadan iborat.

Unda quyidagi masalalar nazarda tutilmoqda:

- tashkilotga a'zo davlatlarning favqulodda vaziyatlar idoralari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;
 - tabiiy ofatlar vaqtida tezkor qidiruv-qutqaruv ishlarini muvofiqlashtirish;
 - ushbu sohada monitoring, tahlillar natijalarini hamda o'zaro tajriba almashinuvini tizimlashtirish;
 - o'zaro yordam va hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish kabi masalalarning huquqiy asoslari va mexanizmlari belgilangan.
- Ushbu bitim mamlakatimizda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik choralarini yanada samarali tashkil qilinishi, tabiiy ofatlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda davlatlararo hamijihatlik va hamkorlikni ta'minlaydi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

"Xalq so'zi".

etilgan shaharlardan ko'p marotaba atfaldir.

Vazir, shuningdek, Indoneziya tomoni "Umra+Samarqand" dasturini ommalashtirishda har tomonlama ko'mak ko'rsatishga tayyorgirini bildirib, nutqi o'zining ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlarida joylashtirilishi va keng jamoatchilikka yetkazilishini urguladi.

Ayni chog'da targ'ibot va tashviqot qilish orqali "Umra+Samarqand" turpaketini ommalashtirish va Indoneziyadan O'zbekistonga turistlar sonini keskin oshirish imkoniyati mavjud ekanligi ta'kidlandi.

Tadbir doirasida "Qanot Sharq" aviakompaniyasi vakillari va Indoneziyaning "ASITA" turizm agentliklari tashkiloti raisi Rusmiati Nunung o'rtasida Jakarta – Samarqand – Jidda yo'nalishida aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish va indoneziyalik turistlarga xizmat ko'rsatish to'g'risida hamkorlik memorandumini imzolandi.

"Dunyo" AA, Jakarta

Biz va jahon

O'zbekiston tashabbusi: O'rmonlarni ko'paytirish va qayta tiklash bo'yicha harakatlar dekadasi

Mamlakatimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi doimiy vakolatxonasi ma'lumotiga ko'ra, Bosh Assambleya O'zbekiston tashabbusi bilan "O'rmonlarni barqaror boshqarish asosida o'rmonlarni ko'paytirish va qayta tiklash bo'yicha harakatlar dekadasi" rezolyutsiyasini qabul qildi.



Rezolyutsiya Amazondan keyin dunyodagi ikkinchi eng katta tropik o'rmonga ega bo'lgan Kongo Respublikasi bilan birgalikda ilgari surildi.

Hujjat asosini Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi hamda "Markaziy Osiyoning "yashil" belbog'i" ko'chat ekish aksiyasi tashkil etadi.

Matn O'zbekiston tashabbusi bilan 2024-yil avgust oyida qabul qilingan Degradatsiyaga uchragan va qurg'oqchil yerlarda o'rmonlarni barqaror boshqarish to'g'risidagi rezolyutsiya, shuningdek, ekologik konvensiya va BMTning O'rmonlar bo'yicha forumining muhim qarorlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Rezolyutsiyada 2027 – 2036-yillarni butun dunyo bo'ylab o'rmonlarni ko'paytirish va qayta tiklash bo'yicha harakatlar o'n yilligi, deb e'lon qilish to'g'risida aytilgan. O'rmonlarni ko'paytirish uchun kuch va resurslarni safarbar etishga chaqirildi. Barcha davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xususiy sektor va ilmiy jamiyatga Harakatlar o'n yilligini to'g'ri amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish tavsiya qilindi.

Hujjatni 155 ta davlat delegatsiyalari qo'llab-quvvatlad. Dunyo mintaqalarini ifodalovchi 80 dan ortiq mamlakatlar hammuallif bo'ldi.

Ular O'zbekiston tashabbusini o'z vaqtida va ekologik muammolarni hal etishda dolzarbligini inobatga olgan holda olqishladi. Mutaxassislar fikricha, rezolyutsiya BMTning iqlim o'zgarishi, biologik xilmaxillikning yo'qolishi, kambag'allik, suv tanqisligi va qurg'oqchilik kabi ko'plab global muammolarga ekologik toza yechim topishga qaratilgan sa'y-harakatlariga ulkan hissa qo'shadi.

Hujjatning Bosh Assambleyada taqdimoti chog'ida Polsha vakili Yevropaning 27 ta davlati va YEIga a'zo 6 ta nomzod davlat nomidan uni qo'llab-quvvatlab, rasmiy bayonot berdi.

"Biz O'zbekiston va Kongoga o'rmonlarni saqlash va qayta tiklash bo'yicha global harakatlarni kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlari uchun samimiy minnatdorlik bildiramiz. Shuningdek, o'rmonlarni barqaror boshqarish dinamik va rivojlanib borayotgan konseptsiya ekanligini tan olamiz, u o'rmonlarning ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy funksiyalarini muvozanatlashda yordam beradi va shu orqali barqaror rivojlanish uchun muhim hissa qo'shadi. Shu munosabat bilan biz o'rmonlar va boshqa ekotizimlarning salomatligi, hayotiyligi va barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ularning barcha uchun barqaror kelajakka erishishdagi muhim roli e'tirof etgan holda global ustuvor vazifa bo'lib qolishini ta'minlashga qat'iy sodiqligimizni yana bir bor tasdiqlaymiz", deyiladi bayonotda.

Peru diplomatining aytishicha, uning mamlakati ekologiya masalalarida konstruktiv ruhni saqlashga tayyor. O'zbekiston va Kongoga rezolyutsiya matnini kelishishda ochiq va samarali muzokaralar jarayonini ta'minlaganliklari uchun minnatdorlik bildirildi. "Biz keng ma'noda o'rmonlarni barqaror boshqarishga sodiqligimizni yana bir bor tasdiqlaymiz", dedi u.

BMT Bosh Assambleyasi Raisi Felemon Yang ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida "O'zbekiston va Kongoning o'rmonlarni ko'paytirish va qayta tiklash bo'yicha qo'shma rezolyutsiyasi global ustuvor yo'nalishdagi mintaqalararo hamkorlikning yaqqol namunasidir. Buzilgan yerlarni tiklash tinchlik, barqarorlik va farovonlikka sarmoya kiritish demakdir – Markaziy Osiyodan Afrikagacha va undan tashqarida", deya izoh qoldirdi.

Germaniyaning BMTdagi doimiy vakolatxonasi o'zining rasmiy "X" sahifasida quyidagi xabarni joylashtirdi: "Germaniya biologik xilmaxillikning yo'qolishi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda o'rmonlar hamda ularning ekotizimlarini himoya qilish tarafdori. Biz O'zbekiston va Kongoning butun dunyo bo'ylab o'rmonlar yo'qolishiga qarshi kurashish bo'yicha ushbu muhim tashabbusni ilgari surgani uchun minnatdormiz".

Harakatlarining o'n yilligi e'lon qilinishi o'rmonzorlar barpo etishni rivojlantirish bo'yicha yuksak siyosiy tashabbusni belgilab beruvchi global "Yo'l xaritasi" ekanligini alohida ta'kidlab zarur.

Mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi O'zbekistonning BMT kun tartibidagi ko'kalamzorlashtirish va o'rmon uchun ko'chat ekish masalalaridagi yetakchi rolini mustahkamlaydi. Mazkur hujjat tashabbuskorlari sifatida O'zbekiston xalqaro maydonda rezolyutsiya maqsadlarini ilgari surishda muvofiqlashtiruvchi davlat sifatida ishtirok etishi mumkin. Aslida bu global ekologik kun tartibi muhokamasida Toshkentning "tashrif qog'oziga" ay lanadi.

"Dunyo" AA, Nyu-York

Indoneziya din ishlari vaziri Nasiruddin UMAR:

O'zbekiston – muqaddas zamin

Jakarta shahrida O'zbekiston turizm salohiyatining taqdimoti o'tkazildi. Unda Indoneziya Turizm va Din ishlari vazirligi, sayyohlik kompaniyalari rahbarlari hamda matbuot vakillari ishtirok etdi.



Dunyo nigohi

"Qanot Sharq" aviakompaniyasi rahbariyati joriy yilning kuzgi mavsumidan boshlab Jakarta – Samarqand – Jidda yo'nalishida havo qatnovlari yo'lga qo'yilishini e'lon qildi. "Umra+Samarqand" dasturi doirasida indoneziyalik sayyohlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqidagi videofilm namoyish etildi.

Anjumanda so'zga chiqqan Indoneziya din ishlari vaziri Nasiruddin Umar O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hisssasi, ushbu zaminan yetishib chiqqan buyuk zotlar, mutafakkir va ulamolarni to'g'risida so'zlab berdi.

– O'zbekiston – muqaddas zamin. Samarqand shahri esa Makka va

Madinaga olib boruvchi asosiy darvoza, – dedi vazir Nasiruddin Umar. – Movarounnahr ulamolari Indoneziya orollarida islom dini ta'limotini qaror topirishda alohida o'rin tutadi. Islom olamining buyuk dahosi, Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi "Al-Jome' as-Sahih" kitobining muallifi Imom Buxoriy O'zbekiston zaminida tavallud topgan. O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan taniqli muhaddisning qabri joylashgan Samarqand yonidagi Xartang qishlog'ida ulug'vor yodgorlik majmuasi barpo etilmoqda. Ziyoratgoh dunyo musulmonlari uchun zo'r ahamiyatli tuhfaga bo'lishi muqarrar. Shubhasiz, ushbu voqea nafaqat yangi O'zbekiston tarixida, balki islom dini rivoji tarixida ham munosib o'rin egallaydi.

Imom Buxoriy indoneziyaliklar uchun nihoyatda qadri shaxs. Uning maqbarasini ziyorat qilish har bir musulmonning orzusi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Sukarno ham bundan 70 yil muqaddam, ya'ni 1956-yilda muhaddisning qabrini ziyorat qilgan.

Har yili 1,2 milliondan ortiq vatandoshlarimiz Umra amallarini ado etish uchun Saudiya Arabistoniga yo'l oladi. Ziyoratchilarimiz aksariyat holda Istanbul, Qohira, Doha, Ammon shaharlarida to'xtab o'tishadi. Samarqand shahri o'zining boy tarixi, yuksak madaniyati, islomiy obidalari, tamaddun maskanlari, o'zbeklarga xos mehmondorlik qadriyatlarini, aholisining indoneziyaliklarga bo'lgan iliq munosabati nuqtaiy nazaridan qayd

O'zbekistonda 2025-yilning yanvar – mart oylarida 211,3 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Ilm-fan fidoyilari

MA'RIFAT CHAROQ' BONI

Tolening kulgani rostdirki, kaminaga ulug' ustozlar ma'rifatidan bahra olmoq baxti nasib etdi. Ham ilm, ham hayot yo'lida menga murabbiylik qilgan ana shunday nurli zotlardan biri - Muslihidin domla Muhiddinovdir. "Hatto daraxtdagi barg ham Allohning izni bilan yerga tushadi", deydi. Darhaqiqat, bu olamda tasodiflarga o'rin yo'q. Teran tafakkur, hassos yurak va inja tiynat sohibi bo'lgan ustozga shogird tushmoq, davradosh, davradosh bo'lmoq zamirida ham ulkan saodat, teran hikmat mujassam, albatta.



ham talab etadi. Chunki Qur'oni karim va hadisi sharif buloqlaridan suv ichgan mumtoz adabiyot namunalarini faqat aql-idrok quvvati bilan to'liq anglash imkonsiz. Ularga ko'ngil ko'zi ila boqmoq darkor. Muslihidin domla ham mumtoz adabiyot namunalarini tadqiq qilgan ekan, sir pardasi ortidagi ma'nolarni-da hassoslik ila idrok etadi, daqiq nuqtalariga qadar inkishof ayladi.

Domlaniy mumtoz adabiyotda inson konsepsiyasiga doir ilmiy tadqiqotlari tahsinga sazovor. Jumladan, 1995-yilda himoya qilingan "Alisher Navoiy va uning salafalari ijodida inson konsepsiyasi" ("Xamsa"larning birinchi dostonlari asosida) mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi fundamental ahamiyatga ega. Darvoqe, mo'tabar silsilaga mansub ustozning doktorlik ishi uchun aynan shu mavzuni tanlashi zamirida ham ajdodlarga munosib vorislik ahdi turgan bo'lsa, ne ajab! Zotan, tariqat peshvolari hamisha, har doim komil insonni tarbiyalamoq yo'lida jiddu jahd qilishgan. Bu g'oya tasavvufning negizi, shohtomiri hisoblanadi.

Xonasi kelganda aytaylik, dahriylikni bayroq qilgan shor'rolar zamonida hazrat Alisher Navoiyning falsafiy-irfoniy qarashlari in'ikos topgan "Hayrat ul-abror" dostoni qattol senzurdan ko'p aziyat chekkan. "Xamsa"ning qisqartirilgan nashrini tayyorlashda hatto "Hayrat ul-abror"ning dastlabki boblaridan voz kechilgan. Holbuki, aynan o'sha qaychilangan boblar na'inki asarni to'liq idrok etish, balki Alisher Navoiyning butun falsafiy-irfoniy olamini anglashda ochiqch vazifasini o'taydi.

Istiqlol bizni milliy, diniy o'zlikni anglash ne'matiga qayta yetishtirgani ma'lum. Hurriyat bergan imkoniyatlardan samarali foydalangan Muslihidin Muhiddinov "Xamsa"larning ilk dostonlarida komil inson konsepsiyasini qiyosiy o'rganishga bel bog'lagi. Bu bilan u kechagi zamonada Alisher Navoiy shaxsiga, ijodiga nisbatan qilingan haqiqatliq chek qo'yish, tarixiy adolatni qayta tiklash va "Hayrat ul-abror" dostonining yangi-yangi qirralarini kashf etishni ko'zlagan edi.

Zahmatkash olim "Hayrat ul-abror" dostoni tadqiqotiga, garchi mashuqatli bo'lsa-da, eng to'g'ri yo'lni tanladi. U mazkur dostonni Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror", Amir Xusrav Dehlaviyning "Matla' ul-anvor" hamda Abdurahmon Jomiyning "Tuhfat ul-ahrar" dostonlari bilan muqoyasa etgan holda o'rganib, Alisher Navoiyning jahon badiiy tafakkuri xazinasiga qo'shgan hissasi o'chib berdi.

Bundan o'ttiz - qirq yil avval hazrat Navoiyning ijodi javhari tashvish va islom ma'rifati ekanini baralla aytmoqqa har qanday olim ham jur'at eta olmas edi. Yashirib nima qildik, hatto hozir ham bunday fikr uchun o'g'ay nazarlarga nishon bo'lish mumkin. Muslihidin domla birinchi doston bo'lib xamsanavasilikda inson konsepsiyasi, avvalo, Qur'oni karim va hadisi sharifdan oziqlanganini isbotladi, ma'naviy komillik g'oyasi tasavvuf ta'limi bilan yalakatmag'iz kabi chambarchas bog'liq ekanini asosladi.

O'z vujudiga tafakkur aylagil, Har ne istarsen - o'zingdin istagil", deb o'g'it beradi Alisher Navoiy. Darhaqiqat, insonning o'zligini anglashi qadim yunon falsafasidan to zamonaviy tamaddunga qadar - barcha davr mutafakkirlari, oydinlarini o'yantirgan mummo bo'lib kelgan. Bizda ham istiqlolning ilk yillarida milliy o'zlikni anglash bosh maqsad-vazifa bo'lgani sir emas. O'sha kezlalr "Adabiyot yashasa - millat yashar", degan aqidadan kelib chiqqan holda, mumtoz so'z san'atiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu jabhada Muslihidin domlanning insonshunoslikka doir qarashlari ham katta ahamiyat kasb

etdi. Sirasini aytganda, professor Muslihidin Muhiddinov ustozlari va safdoshlari bilan birgalikda zamonaviy navoiyshunoslikning ilmiy-metodologik asoslarini tubdan yangilash yo'lida jonbozlik ko'rsatdi.

Arab, fors-tojik va o'zbek tillari hukm surgan ma'naviy muhitda kamol topgan ustozimiz tarjima nazariyasi va amaliyoti, tarjima tarixi bo'yicha ham salmoqli tadqiqotlarga qo'l urdi. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalar, zullisonaynlik hodisasi, "Shohnoma"ning o'zbekcha tarjimasi, Alisher Navoiy asarlarining tojik tiliga tarjimalari, Ogahiyning multarjmiy mahorati kabi o'nlab mavzulardagi ilmiy maqolalari bilan dolzarb masalalarga yechim berdi.

Fidoiy olimning jamoat arbobi va rahbar sifatidagi faoliyati alohida bir tarix.

Ham imda, ham himda ibrat

Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilingan hadisda keltirilishicha, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam "Odamlarning yaxshirog'i - boshqalarga manfaati ko'proq tegadiganidir", deya marhamat qilganlar.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ko'plab valiy zotlar qatorida Samarqandda tahsil olgan davrlarida ko'rgan Mavlono Mir Imom degan zotni ham zikr etgan. "Valoyat osori hay'atidin zohir" bo'lgan Mir Imom boshiga musibat va kulfat tushgan zamondoshlarining mushkulini oson qilmoq uchun yozning saratonni yoki qishning qahratonini ham nazar-pisand qilmay zamona ishboshlarining huzuriga borgan ta'sirli yo'sinda bayon etgan.

Har jabhada hazrat Navoiydan ulgi olgan Muslihidin domla ham hojatbarorlikni o'ziga bosh maslak qilib belgilagan, desak, mubolag'a emas. Ustoz o'z tashvishi, shaxsiy manfaat vajidan minba'd birovg'a iltimos qilmaydi. Ammo shogirdlar, do'st-yorning hojatini navo qilish, og'irini yengillatish uchun hamisha kamarbasta. Ardoqli adibimiz Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asari qahramoni Yusufbek hoji xonadonini ta'riflab, ul dargohdan hech kim norizo bo'lib ketmaganini urg'ulaydi. Muslihidin domla ham o'zgalarga yaxshilik ulashmoqni saodat kaliti deb biladi. Qaniydi, ham imda, ham himda ibrat bo'lgan ustozning bu fazilatidan barchamiz ham nasibador bo'la olsak...

Donish og'ochi

Muslihidin Muhiddinov "Yer yuzining sayqali" deya sifatlanmish Samarqandning sodiq va solih farzandi. Navoiyshunoslik ilmining tamal toshi ham ayni shu ko'hna shaharda qo'yilgan ma'lum. Ustozimiz nuktadon olim, mohir tashkilotchi sifatida Samarqand ilmiy muhitini yanada boyitish, navoiyshunoslikning tarixiy an'analarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, mo'tabar omonatini kelgusi avlodga to'kis-tugal yetkazish yo'lida hormay-tolmay mehnat qilib kelmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Muslihidin Muhiddinov qutlug' saksion yoshni kutib olmoqda. Shu yoshda ham bir lahza tinim bilmay, "igna bilan quduq qazish"ni kanda qilmayotgan ustozni donish og'ochiga mengazgimiz keladi. Ko'kka bo'y cho'zgan bu ma'rifat daraxti yana ko'p yillar o'z saxovatli, barakatidan tolibi ilmlarni bahramand etsin. Tabarruk xonadonda yonib turgan ilm-ma'rifat mash'ali hech qachon o'chmasin.

Olimjon DAVLATOV, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

REKLAMA



xabarlari

Gimnastika: jahon kubogi bosqichida 10 ta medal

Toshkent mezbonlik qilgan badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogi musobaqasining uchinchi bosqichi yakunlandi.



Bellashuvning so'nggi kunida sportchilarimiz 1 ta oltin (Taxmina Ikromova, halqa), 4 ta kumush (Anastasiya Saransea, halqa), (Anastasiya Saransea, bulava), (Taxmina Ikromova, to'p va tasma) va 3 ta bronza (guruh mashqi, 3 to'p va 2 halqa), (Anastasiya Saransea to'p), (Taxmina Ikromova, bulava) medallarini jang'ardi.

Shu tariqa jamoamiz mazkur turnirda 2 ta oltin, 5 ta kumush va 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Sambo: vakillarimizning xalqaro turnirdagi muvaffaqiyati

O'zbekistonlik yosh sportchilar Bishkekda o'tkazilgan sambo bo'yicha xalqaro turnirda munosib qatnashdi.

Sakkizinchi bor uyushtirilgan, 300 dan ziyod sportchilar ishtirok etgan musobaqada terma jamoamiz a'zolaridan Ulug'bek Muhammadiyev 88 kilogramm vazni toifasida raqiblarini mag'lub qilib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Davlat Alirizayev 70 kilogramm vaznda, O'lmas Baxtiyorov 26 kilogramm vaznda va Damir Alirizayev 46 kilogramm vazni toifasida bronza medallariga ega chiqdi.



Duatlon: eng kuchlilar ma'lum bo'ldi

Poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida duatlon bo'yicha turli yosh toifalarida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 250 nafar sportchi raqobatlashdi.

Musobaqada ishtirokchilar 20 kilometr velopoyga va 3 kilometr masofaga yugurish bo'yicha bahs olib bordi. Unda erkaklar orasida Viktor Zemsev, Andrey Sharipov hamda Azamjon Qodirov g'olib va sovrindorlar qatoridan joy olgan bo'lsa, ayollar o'rtasida Viktoriya Morozova, Diana Valiyeva hamda Sevara Choriyeva shohsupaga ko'tarildi.



Shuningdek, 13 - 15 yosh toifalaridagi bahslarda Mubinaxon Botirova, Salohiddin Fayzullayev, 10 - 12 yoshdagilar o'rtasida Mohigul Akbarjonova, Abzal Abdurazzoqov, 7 - 9 yoshli bahsida Madina Abdulfatohova hamda Makar Panasyuk mamlakat chempioniga aylandi.

G'olib hamda sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan rag'batlantirildi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Badiiy akademiyasi jamoasi Badiiy akademiyaning haqiqiy a'zosi, O'zbekiston Respublikasi can'at arbobi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, taniqli kulol Sharofiddin YUSUPOVning vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga chuqur hamdardlik bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi Boshqaruvi jamoasi uyushmaning Sirdaryo viloyati bo'limi boshqaruvi raisi Hakimjon YUNUSOVning vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga chuqur hamdardlik bildiradi.

Investor va qurilish tashkilotlari rahbarlari diqqatiga!

Prezidentimizning 2019-yil 29-maydagi PQ-4343-sonli qaroriga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarini zamonaviy talab darajasida hamda arzon uy-joylar qurib berish hisobidan rag'batlantirish, ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish, shuningdek, davlatimiz rahbarining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-118-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktyabrda 865-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tasarrufidagi Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 14-mavze, 48-uy oldida joylashgan qurilish umumiy maydoni 1500 kvadrat metr (0.15 ga) bo'lgan bo'sh yer maydonida Toshkent shahar IIBB Probatsiya boshqarmasi uchun xizmat xonalari va Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'p qavatli turarjoy binolarini tayyor holda topshirish shartlari bilan davlat-xususiy sheriklik asosida qurish bo'yicha investorlar va qurilish tashkilotlari mutasaddilari hamkorlikka taklif etamiz.

Tender savdolarida qatnashish istagida bo'lgan tashkilotlardan quyidagilar talab qilinadi:

- 1. Investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;
2. Investor yoki qurilish tashkilotining tashkiliy tuzilishi bo'yicha ma'lumot;
3. Investor yoki qurilish tashkilotining oxirgi uch yillik (2022, 2023 va 2024-yillar) moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot (oxirgi uch yillik "F-1" va "F-2" hisobotlari, pudrat shartnomalari, obyektini foydalanishga topshirish bo'yicha nusxalari) hamda bajarilgan ishlar bo'yicha fotoalbum ilova qilinishi shart);

- 4. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;
5. Soliq inspeksiyasi tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma hamda doimiy ishchi xodimlari to'g'risida ma'lumot (soliq hisobotida ko'rsatilgan ishchilar soni "milliy mehnat.uz" bazasiga to'g'ri kelishini isbotlovchi hujjatlarni ilova qilish shart);
6. Qurilish ishlarini olib borish, qurilish muddatlari va qurilish shartlari ko'rsatilgan tarmoq rejasi (tasdiqlangan ko'rinishda);
7. Investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi hamda qurilish texnikasi va kichik qurilish mexanizmlari to'g'risida ma'lumot (texnik pasportlarning nusxalari ilova qilinishi kerak), (yuqoridagi 7 ta punkt bo'yicha tayyorlangan hujjatlar to'plami 1-paketda bo'lishi shart);
8. Qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejasi, "3D" ko'rinishda);
9. Qurilish rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turarjoy binolaridagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini ichki

Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 87-uy, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi. Telefon: 71-206-44-08. Qurilish rejalashtirilayotgan obyekt manzili: Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tasarrufidagi Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 14-mavze, 48-uy oldida joylashgan qurilish umumiy maydoni 1500 m2 (0.15 ga) bo'lgan bo'sh yer.

ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilar uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo'yicha hisoboti 2-paket (tijorat taklifi);
10. Loyihalananayotgan ko'p qavatli turarjoy binosi joylashgan hududda qo'shimcha ravishda alohida transformator, xonadonlar soniga nisbatan avtomobillar turarjoyi, chiqindi tashlash joyi hamda bolalar maydonchasi bo'lishi shart. Agar tayyorlanadigan taklifda yuqorida nazarda tutilgan inshootlar mavjud bo'lmagan taqdirda tender savdolariga qatnashishi uchun topshirilgan 1 va 2-paket hujjatlari ochilmaydi va tender savdolaridan cheltashdiriladi;
11. Taklif uchun loyihalananayotgan ko'p qavatli turarjoy binosining qavatlarini yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishishi lozim;
12. Mazkur shartlar bo'yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari mutasaddilari 2025-yilning 15-may kuniga qadar tender savdolariga qatnashish yuzasidan tayyorlangan takliflarni topshirish hamda qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat qilishi mumkin:

Milliy matbuot markazida jurnalist Obid Qo'ldoshning "Unutilgan ashula" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT 2020-yil 25-marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun o'z vaqtida rasmiy tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbachi muharrir F. Bozorov. Musahhish S. Isomov. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 00.55 Topshirildi - 01.30 1 2 3 4 5 6